

**BILIMDAN YAXSHILIK KUT
DOIM KITOBNI DO‘ST TUT**

Appaxodjayeva Dilfuza Jurayevna

Toshkent shahar Sergeli tumani 237-umumta'lim maktabi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada xalqimizning kitobga bo'lgan mehrini oshirish, mutolaa madaniyatini shakllantirish va buning uchun davlatimizda yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Axborot-kutubxona, kitob, kitobxonlik, mutolaa madaniyati, ma'naviyat, kutubxonachi, mantiqiy tafakkur, ko'chma kutubxonalar, tadbirlar, maqsad, imkoniyat, targ'ibot, bilim.

KIRISH

Kitob insonni yetuk komillikka, fikrlash doirasini kengayishiga, so'z boyligining ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ko'p o'qigan odam topag'on, kirishimli va jamoatda o'z o'rniga ega bo'ladi. Kitobni e'tiborli bo'lib, tasavvur qilib, fikr yuritib o'qish orqali, qariganida ham inson aqli o'zining teranligini yo'qotmaydi. Albatta, bu doimiy mashg'ulotga aylansa. Kitob bizni nurli ziyoga, baxtga eltadi. Kitob mutolaasi kamayishi ma'naviyat pasayishiga olib keladi.

Ma'naviyati susayayotgan jamiyat rivojlanishda odimlamaydi. O'tmishimizdan ma'lumki biz kitobsevarlar, olimudonolar, dunyoni hayratga solgan jahongashtalarning avlodlarimiz. Faxr va iftixorimiz osmondan olis. Bunga munosib bo'lishimiz eng muhim vazifalarimizdan biridir. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: Oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib tinimsiz o'qib o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab o'zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi. Men bunga qat'iy ishonaman va bu fikrni sizlar ham qo'llab quvvatlaysizlar, deb o'ylayman.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Hozirgi kunda yurtimizda kutubxonalarga, kitob mahsulotlariga va ommaviy kitobxonlik madaniyatini oshirishga samarali ishlar olib borilmoqda. Buning isboti sifatida Prezidentimizning 2017-yil 2-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida”gi Farmoyishini keltirishimiz mumkin. Bu qarorlar natijasida yurtimiz bo‘ylab qo‘shimcha yangi kitob savdo do‘konlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda aholiga xizmat ko‘rsatish sifat jihatidan ancha takomillashtirildi. Hududlarimizda “Kitobxonlik” haqida tadbir va tanlovlar o‘tkazish an’anaga aylanmoqda. Qaysi yurtda kitob o‘qigan bolaga mashina berilibdi deysiz. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining Axborot-kutubxona faoliyatiga innovatsion usullarni qo‘llashda biz ko‘proq xorij tajribalarini o‘rganishimiz va tahlil qilishimiz kerak. Degan so‘zlari ayni haqiqat. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash barqaror taraqqiyotga erishish mumkin emas. Hayotimizning eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o‘rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur. Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarimizning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi deb o‘ylayman. Albatta, kompyuter, planshet-yaxshi. Bu narsalar zamon talabi hozir. Lekin madaniyat yoshlikdan, insonni bolalar bog‘chasida, maktabda kitob o‘qishga o‘rgatishdan boshlanadi. Boshqa davlatlarda kitobni televizorda o‘qityapti. Masalan, Rossiyada Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanini o‘qitdi-ku, nimaga biz o‘qitmaymiz. Haqiqatda, aksariyat qishloq odamlari erta tongdan to kech shomgacha dalalarda og‘ir mehnat qiladilar. Qishning ayozli kunlarida ham, jazirama yoz kunlarida ham achchiq terga tushib ishlaydilar. Hatto shunday paytlar bo‘ladi, kitob o‘qish uyoqda tursin, ovqatini tayyorlab yeyishga zo‘rg‘a ulguradilar. Chunki ekinlarga o‘z vaqtida ishlov berilmasa, yaxshi hosil ololmaydilar. Shuni hisobiga ro‘zg‘or terbatadilar. Hamma

xonadonlarimizda televizor borligini, kechqurun ko'pchilik televizor tomosha qilishini hisobga olsak, bizda ham televizorda kitob o'qilsa yaxshi bo'lardi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yevropa mamlakatlarida bolalar va o'smirlar adabiyotiga juda jiddiy ahamiyat beradilar. Bizning bolalarimiz o'qiydigan kitoblarning ham asosan tarjima asarlar ekani sir emas. Bolalarning sevimli qahramonlari ham Yevropa adabiyotining farzandlari. Yaxshi badiiy asar millat tanlamaydi, chegara bilmaydi. Biroq xalqning o'z adabiy qahramonlari bo'lsa yana yaxshi. Bu sohadagi tarbiyamizda bitta kamchiligimiz bor. Avvalo ko'p xonadonlarda oilaning kattalari kitob o'qimaydilar. O'zlari o'qimay turib, farzandlarini kitobga jalb qila olarmikinlar? O'sha ota-onalar o'ylab ko'rsinlar, farzandlari bo'sh vaqtlarini ko'cha bezorilari yoki behayo kinolar qurshovida o'tkazganlari ma'qulmi yo fikr tarbiyasini beruvchi kitob bilan do'stlashganlari afzalmi? Donolardan biri "Kitob o'qimagan kishi fikrlashdan to'xtaydi", degan ekan. Kimdir bunga qarshi chiqib aytarki, "Men umrimda kitob o'qimaganman lekin fikrlayman-ku?" To'g'ri, o'qigan ham, o'qimagan ham fikrlaydi. Biroq qay tarzda fikrlaydi? Fikrning ma'nosi bormi? Bu fikri bilan o'zgaralar orasida e'tibor qozona oladimi? Ba'zi ota-onalar mana shundan zorlanishadi. "Falon so'mlik kitob olib keldim, o'g'lim bir bet ham o'qimadi", deydi. "O'sha kitobni o'zingiz o'qidingizmi?" deb so'raymiz. "Kitob o'qishga vaqt bormi?" degan javobni eshitamiz. Ba'zida ayollarimiz qo'shni ayollar bilan g'iybat qilishga, qaynona-kelinning be'mani tortishuvlariga vaqt topilyapti-da, kitob o'qishga vaqt yo'q. Erkaklarimiz ham choyxonalarda ulfatlar bilan vaqtini behuda o'tkazayapti. Ammo kitob o'qishga vaqt ajrata olmaydilar. Gohida ota-onalar telefonga mukkasidan ketib qolyaptilar. "TikTok", "Instagram" va boshqalar. Farzandingiz bilan birga dars tayyorlayapsizmi? Birgalikda kitob o'qiyapsizmi? Suhbatlashayapsizmi? O'rni kelganda o'ynayapsizmi? Bu savollarimning javobi o'zingizda. Meni javobim esa shunday: Men bolalarim bilan bolalarcha o'ynayman. "Kuchukcha-kuchukcha" o'yinimizni o'ynaymiz. O'zimizcha ssenariy tuzamiz. O'zimizcha qahramon bo'lamiz. O'sha vaqtda bolalarimning sevinchini ko'rsangiz edi. Hamma aytganlarimni so'zsiz bajaradi. Bolani ehtiyojini qondirmasdan turib, kitob o'qi, dars tayyorla deganimiz bilan bajaradi deb o'ylamayman. Yana bilmadim. Avval o'zimiz kitob o'qishni kundalik

odatga aylantirib olishimiz kerak. Axir aytishadi-ku “Qush uyyasida ko’rganini qiladi” deb. Ba’zi talabalarning o‘tayotgan vaqtiga achinib ketaman. Telefonga juda bog‘lanib qolishgan. Keraksiz videolarni tomosha qilib, qimmatli vaqtini besamar o‘tishiga sababchi bo‘lishyapti. Abturiyentlik vaqtida o‘qishga kirishni maqsad qilib, ko‘p kitob o‘qib, mehnat qilib bu cho‘qqini zabt etadi. Ular juda kuchli, faqat o‘z maqsadini yo‘qotgan. Talabalar endi bilimli kadr bo‘lishni va o‘z sohasida yangiliklar yaratishni maqsad qilsalar yaxshi bo‘lardi. Biz ilm o‘rganishimiz uchun imkoniyatlar bisyor. Faqat xoxish bo‘lsa yetarli. Yoshligimiz ketmasdan, yoshlikning ichki imkoniyatlaridan, yoshlik xotirasidan foydalansak, mo‘jizalar kashf qilsak, yurtimizning istiqboli uchun o‘zimizning munosib hissamizni qo‘shsak, vijdonimiz oldida qiynalmas edik. Ilm o‘rganish borasida banda borki ham o‘zi, ham Allohning oldida xijolatdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda men bo‘lajak kutubxonachi sifatida xalqimizda kitobxonlikni oshirishda o‘z hissamni qo‘shmoqchiman. Kitob mutolaasi oshishi vaqtini unumli o‘tkazish bilan bir qatorda, yorqin kelajak sari intilish demakdir. Kitob o‘qish, ma’naviy oziqlanish bizni kunlik ehtiyojimizga aylanib, bir kunda 4-5 varaq kitob mutolaasi bilan shug‘ullanishni o‘zimizga bir odat qilib olsak muvofiq bo‘lardi. So‘zim so‘ngida shuni aytmoqchimanki kitob sizni-bizni faqat yaxshilik sari yetaklovchi bir qayiq desam adashmagan bo‘laman.

Donolarimiz shunday deydi-“oz bilish uchun ko‘p o‘qish kerak”. Bugungi kunda Prezidentimizning bizga yaratayotgan sharoitlariga javoban biz ko‘p bilishimiz va juda-juda ko‘p o‘qishimiz kerak. Kutubxonalarimizda kitoblar, o‘qish uchun sharoitlar yetarli biroq kitobxonlar yetarli emas. Eng oliy texnologiya ham kitob bergan lazzatni berolmaydi. Axir shu texnologiyalar yaratilishida kitobning xizmati beqiyos. Telefonlar inson ehtiyoji uchun yaratildi. Uning foydali va zararli tomonlarini juda yaxshi bilamiz. Kitob o‘qish foydali ekanligini hammamiz bilamiz. Lekin amal qilishimiz kam. Bahonalarimiz bir talay.

“Kitob o‘qiganimdan endi nima foyda, o‘qib olim bo‘larmidim”-deyishadi. Kitob o‘qiganda qanday rohat, qanday lazzat borligini kitob o‘qiganlardan so‘rang!!! Kitob o‘qib baxtini topgan, hozir nafaqaga chiqqan bo‘lsada kitob, daftar, ruchka qo‘lidan

tushmaydigan hamyurtlarimiz ham juda ko‘p. Kitob o‘qish ularni ma’naviy ehtiyojiga aylangan. Shunday insonlarimiz bor ekan, Yangilanayotgan O‘zbekistonimiz yanada gullab yashnaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoyev.-Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2020.-72b.
2. Mirziyoyev, SHavkat Miromonovich.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz.-Toshkent: “O‘zbekiston”NMIU,2017.-592b.
3. Quyoshingiz botmasin. Toxir Malik.-Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2018.-496 b.
4. Dildagi dur: j.2/ T.Sodiqova.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-408 b.